



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-iyul

354-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 16-iyuldagi ‘O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘‘Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tajriba stansiyalari faoliyatini yanada rivojlantirish hamda yer resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 2024-yil 2-iyuldagi 375-sonli qarori to‘g‘risida’’gi 313-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘‘Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy- tajriba stansiyalari faoliyatini yanada rivojlantirish hamda yer resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 2024-yil 2-iyuldagi 375-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 16-iyuldagi 313-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, ‘‘Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida’’gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 16-iyuldagi ‘‘O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘‘Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tajriba stansiyalari faoliyatini yanada rivojlantirish hamda yer resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 2024-yil 2-iyuldagi 375-sonli qarori to‘g‘risida’’gi 313-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-iyuldagi 375-sonli qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda Institut va uning tizimidagi ilmiy- tajriba

stansiyalari yer maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash uchun 73 km uzunlikdagi kollektor-drenaj tarmoqlarida ta'mirlash-tozalash ishlarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish chorasini ko'rishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (A.Abdusalomov), Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (B.Pazilov), Uychi tuman hokimligi bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar Akademik Maxmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Namangan ilmiy tajriba stansiyasiga qarashli barcha yer maydonlari, ma'muriy va boshqa bino-inshootlarga bo'lgan huquq belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlanishi belgilab berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Xakimov), Kadastr agentligining tuman bo'limi (A.Shodmonov), tegishli idora va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-iyuldagi 375-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilinsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov